

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MAXMUDOV AZAMAT NORMURADOVICH**

**XARAJATLAR VA DAROMADLARNING BOSHQARUV HISOBINI VA  
ICHKI AUDIT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Maxmudov Azamat Normuradovich**

Харajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish..... 3

**Махмудов Азамат Нормурадович**

Совершенствование методологии управленческого учета и внутреннего аудита затрат и доходов..... 35

**Makhmudov Azamat Normuradovich**

Improving the methodology of management accounting and internal audit of costs and revenues..... 69

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных пабот

List of published works..... 74

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MAXMUDOV AZAMAT NORMURADOVICH**

**XARAJATLAR VA DAROMADLARNING BOSHQARUV HISOBINI VA  
ICHKI AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.3.DSc/Iqt2468 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.zivonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Xasanov Baxodir Akramovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Ismanov Ibrohim Nabievich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Mamatqulov Murodjon Shukurovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «24» 02 soat 4 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (258 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «10» 02 kuni tarqatildi.

(2023 yil «10» 02 dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.P. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d, professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d, professor

## **KIRISH (Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoning taraqqiy etgan davlatlari ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish va diversifikatsiyalash asosida milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozorida raqobatdoshligini kuchaytirishga erishmoqdalar. «2021 yilda jahon to'qimachilik bozorining hajmi 993,6 milliard AQSh dollariga baholandi, 2022 – 2030 yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati 4,0 foiz bo'lishi kutilmoqda»<sup>1</sup>. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish, maxsulot tannarxini aniqlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy holati va hisobotlarining to'g'ri va aniqlik darajasiga bog'liqligini e'tirof etilgan holda xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditni takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalar hamda ular bo'linmalarining xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun buxgalteriya hisobini rivojlantirish va axborot bazasini yaratish, yengil sanoat tizimini boshqarish tizimining umumiy tarkibida xarajatlarni boshqarishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va uning auditini rivojlantirish, yengil sanoat tizimida xarajatlar boshqaruv hisobini tashkil etishning uslubiy jihatlarini o'rganish, tikuv-trikotaj korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini rivojlantirish bo'yicha bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan yengil sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. “Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravar va charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni 3 baravarga ko'paytirish”<sup>2</sup> vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz yengil sanoat korxonalarini rivojlantirishning ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi tanlab olingan. Shu maqsadda yengil sanoat korxonalarini faoliyatini modernizatsiyalash va mahsulotlar assortimentini diversifikatsiyalash maqsadlari uchun hisob va audit tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmokda. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash mamlakatimizdagi yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va

---

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

tikuv-trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini oshirishni taqozo etadi. Yengil sanoat korxonalarining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishni ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizdagi yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-53- son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 5 maydagi PF-5989-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 apreldagi 171-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori hamda mazkur sohaga oid yana bir qator normativ-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.**<sup>3</sup> Yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish uslubiyotini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlari, oliy ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda, jumladan: The World Bank, Bureau of Economic Analysis (BEA), The International Accounting

---

3 The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>; Bureau of Economic Analysis (BEA) U.S. International Economic Accounts: Concepts and Methods. International Transactions Accounts, International Investment Position Accounts, and the Activities of Multinational Enterprises. <https://www.bea.gov/system/files/2021-07/iea-concepts-methods-2014.pdf>; The International Accounting Standards Committee, <https://www.iasplus.com/en/news/2012/november/the-bruce-column-2014-hoogervorst-makes-his-case-for-leasing-reform>; The IFRS Foundation, <https://www.ifrs.org/news-and-events/news/2021/02/iasb-amends-ifrs-standards-accounting-policy-disclosures-accounting-policies-accounting-estimates>; International union of railways, <https://uic.org/support-activities/finance/>; Giovanna Michelon, Antonella Cugini, Silvia Pilonato. Innovating accounting practices in rail transport companies. Journal of Applied Accounting Research. September 2013 DOI: 10.1108/09675421311291892; [Yuliya Vladimirovna Predeus, N. V. Predeus, P. L. Altukhov](#), Development of Managerial Accounting in the Railway Holding. April 2020. DOI: [10.1007/978-981-15-2244-4\\_58](https://doi.org/10.1007/978-981-15-2244-4_58);

Standards Committee (IASC), International Accounting Standards Board (IASB), International Sustainability Standards Board (ISSB), The IFRS Foundation, International union of railways (UIC), Amerika diplomli jamoatchi buxgalterlar instituti (AICPA), [University of Bristol](#) (Buyuk Britaniya), [University of Padova](#) (Italiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent moliya instituti tomonidan olib borilmoqda.

Xalqaro darajada yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish uslubiyotini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yakuni sifatida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: yengil sanoat korxonalarini xarajatlarini o'lchash tizimidagi buxgalteriya innovatsiyasini taqdim etish jihatlari yoritib berilgan; investorlar va moliyaviy hisobotlarning boshqa asosiy foydalanuvchilari uchun foydaliroq ma'lumotlarni taqdim etishi uchun buxgalteriya siyosati ochiqligini takomillashtirish va buxgalteriya hisobidagi o'zgarishlarni hisob siyosatidagi o'zgarishlardan farqlash ko'rsatilgan (The IFRS Foundation); yengil sanoat tizimiga xizmat qiluvchi biznes-jarayonlarni aniqlash, keyinchalik ularni operatsion xarajatlarni optimallashtirish maqsadida ausorsingga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkinligi aniqlangan.

Dunyoda hozirgi kunga kelib, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va nufuzli xalqaro institutlarida yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning nazariy-metodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishonchli buxgalteriya infratuzilmasini saqlash asosida budjetlarni rejalashtirish va xarajatlarini boshqarish, maxsulot tannarxini aniqlash usullarini takomillashtirish, moliyaviy natijalar auditini tashkil etish, auditning xalqaro standartlarini joriy etish va monitoringni amalga oshirish orqali uning tarkibiy qismlarining barqarorligini va hisob-kitoblarning barqarorlikka ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish uslubiyotining nazariy va amaliy jihatlarni o'rganish yuzasidan ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, S.McCartney, A.Arnold, B.Nidlz, H.Anderson, Ch.Xorngren, R.Entoni<sup>4</sup> hamda MDH iqtisodchi olimlari A.Aksenenko, N.Kondrakov, I.Lamikin, S.Nikolaeva, V.Paliy, V.Suyts, A.Sheremetlar<sup>5</sup> munosib hissa qo'shishgan.

---

<sup>4</sup> McCartney, Sean, Arnold, A., 2002. Financial Reporting in the Context of Crisis: Reconsidering the Impact of the 'Mania' on Early Railway Accounting. *European Accounting Review*. 11, 401-417. 10.1080/09638180220145687.; Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 1994.-496 с.; Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учёт: управленческий аспект. –М.: Финансы и статистика, 2000. -416 с.; Энтони Р., Дж. Рис. Учет: ситуации и примеры. -М.: Финансы и статистика, 1993.-348 с.;

<sup>5</sup> Аксененко А.Ф. Себестоимость в системе управления отраслью: Учет и анализ. -М.: Экономика, 1984.-168с.; Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. Учебные пособия. 2-е изд. -М.: Инфра-М, 2008. -412 с.; Ламыкин И.А. Бухгалтерский учет. Учебник. –М.: Филинь, 2000. -520 с.; Николаева С.А. Принципы формирования и калькулирования себестоимости. –М.: Аналитика - Пресс, 1997.-142 с. Палий В.Ф. Современный



Shuningdek, yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash va uning nazoratini ayrim masalalari mamlakatimiz soha olimlari A.Alikulov, A.Ibragimov, A.Pardaev, B.Isroilov, B.Xasanov, B.Maxsudov, I.Ismanov, I.Qo‘ziyev, K.Axmedjanov, K.Urazov, M.Kalonov, M.Mamatqulov, N.Abdusalomova, N.Rizayev, N.Xajimuratov, O.Jumanov, R.Dusmuratov, R.Xolbekov<sup>6</sup> va boshqalarning ishlarida keng o‘rin olgan. Mazkur ilmiy ishlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlari, undagi mavjud muammolari to‘liq o‘z aksini topmagan. Bu masalalar, ayniqsa yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida yuritishning metodologik asoslari, tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tarmoqda raqamli iqtisodiyot sharoitiga mos keladigan buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalar jumlasiga kiradi.

Ammo, yuqoridagi xorijiy tadqiqotchilar hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalarda yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olinmagan. Bu esa bugungi kun talablariga javob beradigan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etib, muammoning nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan hal qilinishi mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6

---

бухгалтерский учет. -М.: «Бухгалтерский учет», 2003. -792 с.; Суйц В.П. Внутрипроизводственный контроль.- М.: Финансы и статистика, 1987.-194 с; Шеремет А.Д. Управленческий учет. -М.:ФБК-ИРЕСС, 2000. -512 с.;

<sup>6</sup> Alikulov A.I. Paxta tolasini ishlab chiqarish va tayyorlash xarajatlari hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. -Toshkent, 2012. -37 b.; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditori va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2002. -42 b.; Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Akademiya, 2002. -176 b.; Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. -T.: «O‘zbekiston». 2006. – 272 b.; Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. -Toshkent, 2004. -42 b.; Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) dissertatsiya avtoreferati: 08.00.08. / -Toshkent, 2018. -46 b.; Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditori metodologiyasini takomillashtirish masalalari. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. –T.: 2009, 40 b.; Qo‘ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. -70 b.; Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. disser. avtoreferati. –T.: 2016.; Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. – Toshkent: Fan, 2005; Kalonov M.B. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish masalalari: Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 176 b.; Mamatkulov M.Sh. Kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi korxonalarida boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. –T.: 2021, 64 b.; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. –T.: 2019, 76 b.; Ibragimov A.K., Xasanov B.A., Rizayev N.K. Amaliy boshqaruv hisobi. -T.: «Moliya». 2014. – 404 b.; Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditori metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. (DSc) disser. avtoreferati. –T.: 2021, 66 b.; Jumanov O. Boshqarish hisobi: Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning tajribasi //Ruschadan mualliflashtirilgan tarjima. T.: 2001, b. 152.; Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.; Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti. Iqt. fanl. dokt. disser. avtoreferati. –T.: 2006;



«O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotini konseptual yo‘nalishi» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xarajatlar va moliyaviy natijalarning boshqaruv hisobi hamda audit metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O‘zbekistonda yengil sanoat tarmog‘i rivojlanishining hozirgi holati, texnologik xususiyatlari va taraqqiyot tendensiyalarini tahlil qilish;

xarajatlarning boshqaruv hisobi va audit sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekistonda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil qilishning konseptual asoslari va tamoyillarini belgilash;

tarmoq korxonalarini uchun hisob siyosatining tashkiliy va uslubiy tamoyillarini ilmiy asoslash;

AKTda qayta ishlashga mo‘ljallangan, raqamlashtirilgan hisob registrlarining takomillashtirilgan shakllarini taklif etish;

«Tarmoq korxonalarida xarajatlar – mahsulot hajmi – foyda» zanjiri asosida iste‘mol qiymatini shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish;

yengil sanoat korxonalarida auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

tarmoq korxonalarini uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;

audit jarayonida muhimlikni aniqlash va riskni baholashda tahliliy amallardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berish;

yengil sanoat korxonasining mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga ta’sir etuvchi muhim omillarni ekonometrik modellashtirish orqali istiqbolni belgilash.

**Tadqiqotning ob‘ekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarini tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib yengil sanoat korxonalarida xarajatlar va moliyaviy natijalarning boshqaruv hisobi hamda auditni samarali tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada o‘rganilayotgan jarayonlarga tizimli yondoshuv, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, guruhlashtirish, istiqbolli prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xarajatlarni hisob yuritish amaliyotida moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobiga oid xarajatlarga bo‘lish asosida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo‘lim tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda kontraktiv schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish orqali xarajatlar hisobi va

auditini amalga oshirish samaradorligini oshirish, axborotlar aniqligini ta'minlash asoslangan;

tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini baholash uchun Namunaviy schyotlar rejasidagi 2020-«Tugallanmagan ishlab chiqarish» schyotini - schyotlar rejasining 7-bo'limiga ko'chirish orqali xarajatlarning soliq solinadigan bazaga qayta qo'shilishi talabini bartaraf etish taklifi asoslangan;

xarajatlarning boshqaruv hisobida «1UZ» dasturini qo'llash maqsadida «Tannarx» nomli bo'lim va unga mos subkontolar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish asosida hisob yuritishning aniqligini oshirish hamda amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish taklifi ishlab chiqilgan;

yengil sanoat korxonalarini faoliyatining auditi jarayonida moliyaviy barqarorlikni aniqlashda bank-moliya tizimida kredit portfeli auditini rejalashtirishga ixtisoslashgan elektron dastur va uning ilovasidan foydalanish asosida xalqaro kompleks dasturga o'tish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda tikuv-trikotaj korxonalarining mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga inflyatsiya, soliqlar va bank kreditlari ta'siri asosida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025 yilga qadar maqsadli parametrlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

«Joriy aktivlar», «Qisqa muddatli aktivlar», «Zaxiralarni qaytarish huquqi bo'yicha aktiv», «Doimiy va vaqtinchalik farqlar», «Tugallanmagan ishlab chiqarish» kabi iqtisodiy atamalarga mualliflik ta'rifi keltirilgan;

xalqaro standartlar talablariga ko'ra «Tannarx» sintetik schyotining tarkibida «Vaqtning muayyan nuqtasida tan olinadigan tannarx», «Davr mobaynida tan olinadigan tannarx», «Tannarxga tuzatish kiritish» nomli subschyotlarni ochish orqali tannarx yangicha turkumlashtirilgan;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ida mahsulot tannarxini hisoblashning «Goal-costing» usulini qo'llash yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xarajatlar va maxsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini auditi bo'yicha ichki audit standarti loyihasi taklif etilgan;

xo'jalik sub'ektining moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridagi nostandart o'zgarishlarni aniqlash orqali moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish belgilarini sakkizta indeks yordamida hisoblash taklifi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, buxgalteriya hisobi va auditiga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlar hamda mutasaddi tashkilotlar «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarining buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflari asosida:

xarajatlarni hisob yuritish amaliyotida moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobiga oid xarajatlarga bo'lish asosida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo'lim tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda kontraktiv schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish orqali xarajatlar hisobi va auditini amalga oshirish samaradorligini oshirish, axborotlar aniqligini ta'minlash bo'yicha taklifi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tizimidagi korxonalar faoliyatiga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 4 oktabrdagi 03/06-2829-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xarajatlarni guruhlariga bo'lib hisobini yuritish orqali xarajatlar hisobi va auditini yuritish samaradorligi oshishiga, axborotlarning ishonchliligini ta'minlanishiga olib kelgan;

tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini baholash uchun Namunaviy schyotlar rejasidagi 2020-«Tugallanmagan ishlab chiqarish» schyotini schyotlar rejasining 7-bo'limiga ko'chirish orqali xarajatlarning soliq solinadigan bazaga qayta qo'shilishi talabini bartaraf etish taklifi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi korxonalarini faoliyatiga joriy qilingan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2022 yil 4 oktabrdagi 03/06-2829-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida buxgalteriya hisobi schyotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish imkoniyati yaratilgan;

xarajatlarning boshqaruv hisobida «1UZ» dasturini qo'llash maqsadida «Tannarx» nomli bo'lim va unga mos subkontolar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish asosida hisob yuritishning aniqligini oshirish hamda amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish taklifi «ABS FINANS AUDIT» auditorlik tashkiloti, «OSIYO GRAND TEKSTIL» MChJ va «CHINOZ TEXTILE» MChJlar faoliyatiga joriy etilgan («ABS FINANS AUDIT» auditorlik tashkilotining 2022 yil 28 sentabrdagi 5-con, «OSIYO GRAND TEKSTIL» MChJning 2022 yil 19 sentabrdagi 75-son va «CHINOZ TEXTILE» MChJning 2022 yil 20 sentabrdagi 125-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida auditorlik riskini pasaytirish va

tekshiruvlarning muhimligini oshirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish imkoniyati yuzaga kelgan;

yengil sanoat korxonalarini faoliyatining auditi jarayonida moliyaviy barqarorlikni aniqlashda bank-moliya tizimida kredit portfeli auditini rejalashtirishga ixtisoslashgan elektron dastur va uning ilovasidan foydalanish asosida xalqaro kompleks dasturga o'tish taklifi «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi va «ABS FINANS AUDIT» auditorlik tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2022 yil 4 oktabrdagi 03/06-2829-son, «ABS FINANS AUDIT» auditorlik tashkilotining 2022 yil 28 sentabrdagi 5-con ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida «Audit sampling» (Auditorlik tanlash) nomli dasturning milliy bosqichidan xalqaro «SoftExpert Audit» kompleks dasturiga o'tish bosqichlarini ishlab chiqishga erishilgan;

O'zbekistonda tikuv-trikotaj korxonalarining mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga inflyatsiya, soliqlar va bank kreditlari ta'siri asosida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025 yilga qadar ishlab chiqilgan maqsadli parametrlarining prognoz ko'rsatkichlari «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi, «BETLIS TEKSTIL» MChJ va «CHINOZ TEXTILE» MChJlar faoliyatiga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2022 yil 4 oktabrdagi 03/06-2829-son, «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2022 yil 19 sentabrdagi 52-son, «CHINOZ TEXTILE» MChJning 2022 yil 20 sentabrdagi 125-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xo'jalik sub'ektlarining strategik rivojlanish tendensiyalarini baholash va optimal qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslangan axborotlar bilan ta'minlash imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 22 ta, jumladan 16 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 39 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta ilmiy monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, shundan, 2 ta xorijiy va 10 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 204 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati

yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Yengil sanoat korxonalarida hisob va auditni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlanib, unda O'zbekistonning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini hozirgi holati hamda rivojlanish istiqbollari, xo'jalik sub'ektlarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashning xalqaro tajribalardan foydalanish yo'llari, shuningdek auditorlik faoliyatining xalqaro tajribasi va uni tarmoq korxonalariga joriy etish imkoniyatlari nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etilgan, bob yakunida tadqiqot yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmini ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarini qo'llash orqali sifati jihatidan mukammal va raqobatbardosh bo'lgan zamonaviy assortimentdagi mahsulotlarni yaratish asosida jahon bozorlarida barqaror o'rin egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida paxta xom ashyosini yetishtirishdan tortib unga dastlabki ishlov berish, mahsulotlarni to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida qayta ishlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'unlashtiruvchi klaster modelini amaliyotda qo'llash, ishlab chiqarish jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalar, nou-xau va ishlanmalarini joriy etish orqali yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksporti hajmini oshirish, shuningdek, milliy mahsulotlar brendlarini jahon savdo bozorlarida keng targ'ib qilish kabi maqsadlarga investitsiyalarni yo'naltirish dolzarb hisoblanadi. 2025 yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 milliard AQSh dollariga yetkazish kabi vazifalar belgilangan<sup>7</sup>.

Shu bilan birga, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan kon'yunkturasi sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Bu borada To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, to'qimachilikda yarimtayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlashga yo'naltiriladigan investitsiyalar, tayyor mahsulotlar eksporti hajmini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tarmoqni rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi. Ushbu shakllantirilgan mablag'larni sarflanishini 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4186-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

**To‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘ini rivojlantirish jamg‘armasi  
xarajatlari shakllanishi<sup>8</sup>**

№	Xarajat yo‘nalishlari	Ming so‘m
1	Ko‘rgazmalarda ishtirok etish xarajatlari	5 381 447,7
2	Xalqaro standartlarni joriy etish	1 026 520,0
3	Ilmiy tadqiqot, innovatsion loyixalar amalga oshirish	600 000,0
4	Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish	2 441 439,6
5	Uyushma moddiy texnik bazasini mustahkamlash	1 596 003,0
6	Uyushma xodimlarini saklash va moddiy qo‘llab-quvvatlash	7 746 826,0
7	Homiyliklar, mahallarni qo‘llab quvvatlash	1 240 891,0
8	Soxa xodimlari va farzandlari uchun sog‘lomlashtirish ob‘ektini tashkil kilish uchun	9 000 000,0
9	Ko‘rgazma va kooperatsiya markazi ob‘ektlari xaridi(tashkillashtirish) uchun, ishlab chiqarish ob‘ektlari*	0,0
<b>Jami</b>		<b>29 033 127,3</b>

Jahonda kiyim-kechak mahsulotlariga bo‘lgan talab darajasi aholi sonini ko‘payishi hisobiga yildan-yilga oshib bormoqda. To‘qimachilik mahsulotlari bozoridagi o‘zgarishlar kiyim-kechak bozoriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Jahonda kiyim-kechak mahsulotlari eksportida ham Xitoy keyingi yillarda yetakchilik qilib kelmoqda.

2022 yilning dastlabki ikki oyida O‘zbekiston 15 ta xorijiy davlatlarga qiymati 45,6 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan qariyb 8 ming tonna trikotaj mahsulotlarini eksport qilgan.

Trikotaj mahsulotlari eksporti hajmi o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 8,4 mln AQSh dollariga oshgan. 2022 yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekiston trikotaj mahsulotlarini eng ko‘p eksport qilgan davlatlar Rossiya – 14,5 mln, Qirg‘iziston – 14,2 mln, Italiya – 8,6 mln, Ukraina – 2,8 mln AQSh dollari.

Amerika Qo‘shma Shtatlari 2020 yilda to‘rtlikdan o‘rin olgan. Jahon savdo tashkiloti (JST) ma‘lumotlariga ko‘ra, yil oxirida 2010 yil darajasiga nisbatan eng yaxshi 10 ta global TOP to‘qimachilik eksportchilari o‘z mahsulotlari hajmlarini oshirishga erishgan. XXR (1,0 %) va Vetnam (8,0 %) mamlakatlarida 2019 yilga nisbatan o‘shish, qolgan mamlakatlarda pasayish kuzatilgan. Eksport hajmi 2020 yilda 2019 yilga nisbatan yuqori o‘shishi Vetnamda kuzatilib, o‘shish darajasi 8 % ni tashkil etgan, eng yuqori pasayish Xitoy Taypeyda kuzatilib, uning darajasi 8 % ni tashkil etgan (2-jadval).

<sup>8</sup> <https://uzts.uz/hisobotlar/toqimachilik-va-tikuv-trikotaj-tarmogini-rivojlantirish-jamgarmasi-harajatlari-tezkor/>. Murojaat qilingan sana: 20.12.2022 yil.

**Mamlakatlar bo'yicha jahonda to'qimachilik mahsulotlari eksporti  
(kiyimdan tashqari)<sup>9</sup>, mlrd. AQSh doll.**

Eksportyorlar	Eksport hajmi, 2020 y.	Jahon eksport/importidagi ulushi				Yillik o'zgarish, %			
		2000	2005	2010	2020	2010	2018	2019	2020
Xitoy	1120	10,3	20,2	30,4	39,2	5,0	5,0	8,0	1,0
Yevropa Ittifoqi (28 mamlakat)	66	36,4	34,8	26,9	21,7	0	5,0	7,0	-6,0
Hindiston	17	3,6	4,1	5,1	5,6	3,0	6,0	4,0	-5,0
AQSh	13	7,0	6,1	4,8	4,4	1,0	3,0	1,0	-3,0
Turkiya	12	2,4	3,5	3,5	3,9	3,0	5,0	4,0	-1,0
Janubiy Koreya	9	8,1	5,1	4,3	3,0	-2,0	-2,0	0	-7,0
Xitoy Taypey	9	7,6	4,8	3,8	2,8	-1,0	3,0	0	-8,0
Vetnam	9	0,2	0,4	1,2	2,9	12,0	21	13	8,0
Pokiston	7	2,9	3,5	3,1	2,3	-1,0	2,0	2,0	-11
Gonkong	6	-	-	-	-	-6,0	-4,0	-3,0	-13
- o'z eksporti	0	0,8	0,3	0,1	-	-11,0	7,0	3,0	11
- reeksport	6	-	-	-	-	-6,0	-4,0	-3,0	-14
Jami TOP-10	<b>262</b>	<b>79,2</b>	<b>82,7</b>	<b>83,3</b>	<b>85,8</b>	-	-	-	-

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarining jahondagi global importida esa unda yetakchilar Yevropa Ittifoqi, Vetnam, XXR va AQSh sanaladi. Har qanday holatda ham, to'qimachilik mahsulotlari jahon importi hajmida TOP-4 mamlakatlarning qo'shma ulushi 2020 yilda 76,9 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2000 yilda esa 52,8% ga teng bo'lgan. Bunga asosiy sabab bu davrda kiyim-kechak ishlab chiqarishning rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazilishi sanaladi (3-jadval).

Jahonda 2019 yilda tola ishlab chiqarish hajmi 111 mln. tonnani tashkil etgan. Jahonda tola ishlab chiqarish hajmi oxirgi 20 yilda ikki barobarga oshgan bo'lib hozirgi o'sish sur'ati saqlab qolinganda uni ishlab chiqarish hajmi 2030 yilga borib, 146 mln. tonnani tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Bu esa so'nggi 10 yilda bugungi tola hajmi o'sishiga nisbatan qariyb 3 barobar ortiq o'sish degani.

Maqsad nuqtai - nazaridan, bozorda deyarli barcha sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish texnologiyasining yordamchi elementlari sifatida ishlatiladigan mato va noto'qima materiallar, asosan, sintetik tolalardan tayyorlangan texnik to'qimachilikka bo'lgan talab ortib bormoqda. Texnik to'qimachilik mahsulotlarining bozordagi ulushi 2018 yilda jahonda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlari umumiy hajmining 16 % ga yetdi. Bu soha hozirgi kunda AQShning to'qimachilik sanoati uchun ustuvor hisoblanadi.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda 7,5 mingdan ortiq to'qimachilik korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2018 yil yakuniga ko'ra

<sup>9</sup> Manba: World Trade Statistical Review 2021



to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 % ga teng bo‘ldi va 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida esa to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sur‘ati 2018 yilga nisbatan, 5,7 %ga o‘tdi va amaldagi narxlarda 18 trl. 217 mlrd. 500 mln. so‘mni tashkil etdi. Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 12,0 % ni tashkil etdi.

### 3-jadval

#### Mamlakatlar kesimida jahonda to‘qimachilik mahsulotlari importi (kiyimdan tashqari)<sup>10</sup>, mlrd. AQSh doll.


Importyorlar	Import hajmi, 2020 y.	Jahon eksport/importidagi ulushi				Yillik o‘zgarish, %			
		2000	2005	2010	2020	2010	2018	2019	2020
Yevropa Ittifoqi (28 mamlakat)	67	34,9	33,6	27,8	21,3	1	5	5	-5
AQSh	31	9,7	10,5	8,7	10,0	3	3	8	-2
Vetnam	16	0,8	1,6	2,6	5,2	10	9	11	1
Xitoy	16	7,8	7,2	6,6	5,0	-1	4	3	-12
Bangladesh	10	0,8	1,1	1,7	3,1	9	6	17	-6
Yaponiya	9	3,0	2,7	2,7	2,8	2	3	6	-1
Buyuk Britaniya	7	4,4	3,5	2,7	2,3	0	1	1	-2
Indoneziya	7	0,8	0,4	1,6	2,1	5	4	12	-2
Gonkong	6	-	-	-	-	-7	-4	-3	-15
Gonkongda qolgan import (qayta eksport emas)	1	0,9	0,3	0,1	0,2	-	-13	0	-29
Meksika	6	3,5	2,8	1,9	1,8	1	1	4	-13
<b>Jami TOP-10</b>	<b>169</b>	<b>61,3</b>	<b>59,3</b>	<b>52,4</b>	<b>53,8</b>	-	-	-	-

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti hajmlarining oshishi paxta xom - ashyosi eksportini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarib va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish orqali eksport hajmini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir. Jumladan, 2019 yilda 1,6 mlrd. AQSh dollarga teng to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,1% ni tashkil etdi va 2018 yilga nisbatan 1,3 barobarga o‘tdi. Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (56,9 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (21,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 432 turga yaqin to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 59 ta davlatiga eksport qilingan.

Keyingi yillarda olib borilgan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida ipakchilik tarmog‘i yengil sanoat tarkibidan chiqarilib, alohida uyushma shaklida faoliyat yuritmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibida jami 1816 ta korxonalar faoliyat yuritgan. Ushbu korxonalar tashqi bozorga kalava ipdan tortib, keng assortimentdagi tayyor mahsulotlarni yetkazib bermoqda. Bular zamonaviy dizayn va yuqori sifatli

<sup>10</sup> Manba: World Trade Statistical Review 2021

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligiga erishilayotgani natijasidir. «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi 2019 yilda 1180 ta korxonalar jahonning 54 ta mamlakatiga o‘z mahsulotlarini eksport qilgan. Ayni paytda, mazkur uyushma korxonalari o‘z mahsulotlarini Rossiya, Turkiya, Kanada, Janubiy Koreya, Singapur, Eron, Isroil, MDH mamlakatlari, XXR, AQSh va qator arab davlatlariga eksport qilib kelmoqda va uyushma tarkibidagi korxonalarining eksport salohiyati yildan-yilga o‘shib bormoqda (1-rasm).



**1-rasm. To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatining yillar kesimidagi o‘shib borish dinamikasi<sup>11</sup> (mlrd. dollar)**

«O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan xorijga eksport qilinayotgan mahsulotlar bozori segmentlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda mahsulotlar eksportini asosiy qismi Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa MDH mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2021-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihalari bo‘yicha - har bir yangi tikuvchilik-to‘qimachilik korxonalari mashhur xalqaro brendlar mahsulotlarini realizatsiya qilishi va kamida 1 000 ta ish o‘rnini tashkil etishi lozimligi belgilab berildi.

Ilmiy ishda Toshkent shahri va Andijon viloyatidagi korxonalarining 2017-2020 yillardagi eksport salohiyatini qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (4-jadval).

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, pandemiya sharoitiga qaramay ushbu to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining 2019 yildagi eksport hajmida, asosan, o‘shish kuzatilgan. Faqat Toshkent shahridagi «BEK MEGA TEXTILE» MChJ va «SCARLET DIAMOND» MChJ korxonasida eksport hajmi 2019 yilda 2016 yilga nisbatan mos ravishda 89,4 % va 4,5 % ni tashkil etgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlik tekshiruvlarida firmalar tomonidan yaratilayotgan va qo‘llanayotgan amaliy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb bo‘lib boradi. Bu borada V.A.Yakimova auditorlik firmalari tomonidan amaliyotda qo‘llanayotgan quyidagi «Ekspress Audit: PROF», «Помощник аудитора», «Audit Expert», «Audit XP», «Kompleks Audit», «Audit

<sup>11</sup> «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi moliyaviy hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

NET», «IT Audit» va boshqa raqamli texnologiyalarni muhimligini ko'rsatib o'tgan. Bu esa yirik auditorlik kompaniyalarining raqamli iqtisodiyot talablariga moslashganligidan dalolat beradi.

#### 4-jadval

«O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi to'qimachilik korxonalarining 2017-2020 yillardagi mahsulot eksporti hajmi<sup>12</sup>, ming AQSh doll.

t/r	Korxonalar nomlanishi	Yillar				2020 yilda 2017 yilga nisbatan o'zgarish, %
		2017	2018	2019	2020	
<b>Toshkent shahri</b>						
1	«ALKIM TEKSTIL» MChJ	7256	7412	7513	10453	144,1
2	«BEK MEGA TEXTILE» MChJ	4256	4326	4418	3806	89,4
3	«BEST COLOR TEXTILE» MChJ	3488	4042	4181	3636	104,2
4	«COTTON TEXTILE» MChJ	324	332	347	1597	492,9
5	«KONTEKS-TASHKENT» MChJ XK	5246	5314	5442	7841	149,5
6	«SCARLET DIAMOND» MChJ	701	706	729	35	4,5
<b>Andijon viloyati</b>						
1	«Nil-Granit» MChJ	4202	4216	5121	8493	202,1
2	«Konteks-Tashkent» MChJ XK	9458	9786	10876	11591	122,6
3	«MUMTOZ LYUKS TEKSTIL» MChJ	3046	3184	3268	3467	113,8
4	«Textile Lux» MChJ	5646	5962	6949	5734	101,6
5	«Crystal Color Textile» MChJ	824	836	842	2905	352,6
6	«Dinar Textil» MChJ	974	1008	1014	4620	174,3

Mamlakatimiz bank tizimida auditorlik tanlovlari jarayonida qo'llanilayotgan «Audit Sampling» dasturi U.Saxobov va A.Bubnovlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u auditorlik tekshiruvining faqat bitta mavzusini qamrab olgan, xolos.

Dasturni ishlab chiqishda tijorat banklari tomonidan har oyda Markaziy bankka taqdim etiladigan kredit qarzi hisoboti asos qilib olingan. Kredit faoliyatini tasodifiy tekshirish nuqtai nazaridan TIF Milliy banki filiallari tarmog'ini tekshirishda mazkur kompyuter dasturidan foydalanilgan. «Audit Sampling» (Auditorlik tanlash) kompyuter dasturi modeli statistik va statistik bo'lmagan tanlab olishning barcha bosqichlarini to'liq avtomatlashtirishni ta'minlovchi birinchi ishlanma hisoblanadi.

Tadqiqot ishida to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida bank kreditlari va qarzlarning auditini o'tkazishda «Audit Sampling» dasturini tatbiq etish va undan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida «**To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xarajatlar hisobi, tannarx aniqlash va moliyaviy natijalarning boshqaruv hisobini takomillashtirish**» deb nomlangan bo'lib, unda «Xarajatlar - mahsulot hajmi - foyda» zanjiri asosida boshqaruv hisobini yuritishning xususiyatlari, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning zamonaviy usullarini joriy etishning samaradorligi, mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga ta'sir

<sup>12</sup> «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

etuvchi inflyatsiya, soliqlar va bank kreditlari ko'rsatkichlarini prognozlash kabilar tadqiq qilingan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga oshirish, mahsulot tannarxini o'rtacha 20 foizga pasaytirish hamda korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash, foyda bilan ishlashni ta'minlash masalalari dolzarb ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijdagi ilmiy ishlarda tannarx masalasini turli jihatlarida va turli omillar bilan bog'lagan holda o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga doir tadqiqotlar salmoqli o'rinni egallaydi. Masalan, Dillep G. Dhavale mahsulot tannarxini qarorlar qabul qilishda o'zgaruvchan texnologiyalarga hissali ravishda bog'liqligi asosida o'rganadi.

Prof.N.Abdusalomova «tannarx hisobi - rivojlanayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobining yangi tendensiyasi»<sup>13</sup> deb baholaydi.

Bizning fikrimizcha tannarxni aniqlashda yengil sanoat tizimi sohasida «Tannarx» sintetik schyotining tarkibida «Vaqtning muayyan nuqtasida tan olinadigan tannarx», «Davr mobaynida tan olinadigan tannarx», «Tannarxga tuzatish kiritish» nomli subschyotlarni ochish orqali tannarxni yangicha guruhlashtirish hamda mahsulot va xizmatlarni tannarxini hisoblashning Goal-kosting (Goal costing) usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Goal-kosting (Goal costing) – bu mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblash usuli bo'lib, u mahsulotning bozor bahosi bilan yalpi foyda o'rtasidagi farq sifatida, maqsadli tannarxni aniqlashga asoslangan. Mazkur usul «Target-kosting» va «Kayzen-kosting» usullarining kombinatsiyasidan tashkil topadi. Zero, agar «Target-kosting» ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlariga qilinadigan innovatsion xarajatlarni o'zida mujassam etsa, «Kayzen-kosting» usuli xarajatlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borishga mo'ljallangan bo'lib, u budjet(smeta) va maqsadli tannarx o'rtasidagi farqni qisqartirishni nazarda tutadi.

Soha bo'yicha eng nufuzli tashkilot CIMA instituti Tannarxni hisoblash (Costing), Tannarx hisobi (Cost accounting) hamda Tannarx buxgalteri (Cost Accountancy) tushunchalariga alohida tavsiflar keltirgan:

Tannarxni hisoblash (Costing) – bu tannarxni aniqlashda qo'llaniladigan usullar (techniques and) majmuasi hamda uni hisoblashni amalga oshirish jarayonidir (processes). Ushbu usul mahsulot va xizmatlar tannarxini aniqlash jarayonini tartibga soluvchi tamoyil va qoidalardan iborat bo'ladi.

Tadqiqot ishida «tannarx» atamasiga ta'rif berilgan. Tannarx hisobining bosh masalalari va uning faoliyat doirasiga aniqlik kiritilgan. «Kalkulyatsiya» atamasining o'rniga «kosting» tushunchasini kiritish asoslangan. Ushbu ishlanmaning amaliyotga joriy etilishi korxonalarda tannarx hisobini to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>13</sup> Abdusalomova N., 2017. "Cost Accounting and Financial Health: Analysis of Cost Reduction Policy Effect in Selected Enterprises of Metallurgy Industry in Uzbekistan," International Journal of Management Science and Business Administration, Inovatus Services Ltd., vol. 3(3), pages 33-38, March.

Yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik maxsus ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijalaridan foydalanish asosida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo‘limning tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda subkonto schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot ishida Nobel mukofoti laureati Vasiliy Leontevning «CVP-Cost-Volume-Profit» ya’ni «Xarajatlar-mahsulot hajmi(daromad)–foyda» modeli bo‘yicha xalqaro standartlar asosida kalkulyatsion va tranzit schyotlarni schyotlar rejasining alohida 7-bo‘limida jamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Natijada, mahsulot tannarxini shakllantirish, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash buxgalteriya hisobi schyotlarda vaqtinchalik, doimiy xarajatlarni turkumlash va tuzatish yozuvlari qilish imkoniyati tug‘ilgan. Tannarxni shakllantirishda xarajatlar quyi bo‘linmada, daromadlar yuqori bo‘linmada nazorat qilinadi.

Xalqaro ACCA eksperti Ken Garrettning fikricha, agar biznes bir nechta bo‘limlarga yoki bo‘linmalarga bo‘linib ketgan bo‘lsa, tannarxga asoslangan ichki xo‘jalik baholari ya’ni transfert baholar muqarrar ravishda zarurdir. Odatda, tovarlar yoki xizmatlar bo‘linmalar o‘rtasida harakatlanadi va ularning har biri o‘z faoliyati to‘g‘risida alohida hisobot beradi. Buxgalteriya hisobi tizimi odatda, bo‘linmalar o‘rtasida harakatlanadigan tovarlar yoki xizmatlarni qayd qiladi. Buning uchun biron bir pul ko‘rinishidagi qiymat o‘lchovidan foydalanish zarurati tug‘iladi. Ushbu pul qiymati transfert bahosi hisoblanadi<sup>14</sup>. Taklifimizcha, yuqoridagi xalqaro tajribaga asoslanib, har bir biznes bo‘linmaning tannarxini shakllantirishda, unga o‘rtacha 20 foizdan foyda normasi o‘rnatilsa, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o‘z faoliyatlari natijasidan moddiy manfaatdorligi hamda boshqaruvning shaffofligi kuchaygan bo‘lardi.

Amaldagi Nizom<sup>15</sup> talabiga muvofiq, buxgalteriya va soliqlar hisobi axborotlari bir-biriga mos bo‘lishi zarur. Biroq, bunday mutanosiblikning mavjud emasligi xarajatlarni soliq solinadigan bazaga qayta qo‘shilishini talab qilmoqda. Shu boisdan, amaliyotda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini hisoblash, baholash, hujjatlashtirish va schyotlar rejasiga mazkur o‘zgarishlarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tavsiya qilingan Namunaviy schyotlar rejasiga yangi subschyotlar kiritish, ularning o‘zaro aloqasi bo‘yicha buxgalteriya yozuvlarini qo‘llash taklif etilgan. Namunaviy schyotlar rejasidagi 2020-«Tugallanmagan ishlab chiqarish» schyotini – shu schyotlar rejasining 7-bo‘limiga ko‘chirish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

---

<sup>14</sup> Ken Garrett is a freelance writer and lecturer. Transfer prices are almost inevitably needed whenever a business is divided into more than one department or division. <https://www.accaglobal.com/sg/en/student/exam-support-resources/fundamentals-exams-study-resources/f5/technical-articles/transfer-pricing>

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori (o‘zgartishlar bilan). <https://lex.uz/docs/264422>

**Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq xarajat  
schyotlarining faoliyat turlari kesimida turkumlanishi bo'yicha taklif<sup>16</sup>**

<i>7-bo'lim. "Xarajatlar"</i>		
<b>7000</b>	<b>Tannarx</b>	<b>T</b>
7010	Vaqtning muayan nuqtasida tan olingan tannarx	
7020	Davr mobaynida tan olinadigan tannarx	
7030	Tannarxga tuzatish kiritish (kamayishga)	
<b>7100</b>	<b>Operatsion faoliyat bo'yicha xarajatlar</b>	<b>T</b>
7110	Sotish xarajatlar	
7120	Ma'muriy xarajatlar	
7130	Kurs farqlaridan xarajatlar	
7140	Boshqa xarajatlar	
<b>7200</b>	<b>Boshqa operatsiyalar bo'yicha zararlar</b>	<b>T</b>
7210	Aktivlarni hisobdan chiqarilishidan zarar	
7220	Moliyaviy aktivlar bo'yicha qadrizlanishdan zarar	
7230	Aktivlarning haqqoniy qiymati o'zgarishidan zarar	
<b>7300</b>	<b>Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar</b>	<b>T</b>
7310	Foizlar va boshqa mukofotlar bo'yicha xarajatlar	
7320	Moliyaviy ijara bo'yicha foizlarni to'lashga xarajatlar	
7330	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	
7340	Moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymati o'zgarishidan zarar	
<b>7400</b>	<b>Tugatilgan faoliyat bilan bog'liq zarar</b>	<b>T</b>
7410	Tugatilgan faoliyat bilan bog'liq zarar	
<b>7500</b>	<b>Ulushli qatnashish usuli bo'yicha hisobga olinadigan tashkilotlarning zararidagi ulush</b>	<b>T</b>
7510	Ulushli qatnashish usuli bo'yicha hisobga olinadigan tashkilotlarning zararidagi ulush	
<b>7600</b>	<b>Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar</b>	<b>T</b>
7610	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar	
7620	Foydadan hisoblanadigan boshqa soliqlar bo'yicha xarajatlar	

7010-«Vaqtning muayan nuqtasida tan olingan tannarx»,

7020-«Davr mobaynida tan olingan tannarx»,

7030-«Tannarxga tuzatish kiritish» subschyotlarida aks ettiriladigan xarajatlar turkumlangan (5-jadval).

Bunda vaqtinchalik xarajatlarga ya'ni asbob-uskunalarga investitsiya qilinsa, ular o'rtacha uch yilda to'liq quvvat bilan ishga tushiriladi va bu xarajatlar korxonaning ekspluatatsiya xarajatlari olib boriladi. Bundan tashqari Namunaviy schyotlar rejasi 5 ta qism, 9 ta bo'limdan iborat bo'lib, uning uchta bo'limida rezerv schyotlari mavjud. Namunaviy schyotlar rejasiga aktiv, passiv, kontr-aktiv, kontr-passiv va tranzit schyotlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi yengil sanoat korxonalari faoliyatiga qo'llash uchun ilmiy takliflar va uslubiy ishlanmalar taqdim etilgan.

Tadqiqotlar jarayonida tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda, to'qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini aniqlashning bo'linmali usulini,

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tikuv-trikotaj korxonalarida esa jarayonli usulni qo'llash yuqori samara berishi asoslangan. Xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xarajatlar hisobi va tannarx aniqlashda xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan "Standart-kost" usulining mamlakatimizda modifikatsiya qilingan shakli "Xarajatlarni hisobga olishning normativ usuli"ni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, ishda xo'jalik muomalalarini qayd etishga mo'ljallangan "Bichish kartasi", "Marshrut varaqasi", "Bichilgan buyumlarning harakati to'g'risidagi hisobot" shakllari ishlab chiqilgan.

Ilmiy tadqiqotda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini to'g'ridan-to'g'ri moddiy va mehnat xarajatlari bo'yicha baholash usullari quyidagi ikkita mezon bir vaqtning o'zida bajarilganda iqtisodiy jihatdan asosli, deb hisoblash taklif etilgan:

tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i barqaror bo'lib, uning aylanma mablag'lar tarkibidagi ulushi 1-2% dan oshmagan holda;

xom ashyo va materiallar qiymati tayyor mahsulot tannarxining kamida 70 foizini tashkil etishi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo'limning tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda kontraktiv schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar asoslantirildi. Xarajatlar boshqaruvi hisobini yuritish, tannarxni hisoblash, moliyaviy natijalar auditini tarmoq xususiyatini inobatga olgan holda xarajatlarni hisob yuritish amaliyotida moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobiga oid xarajatlarga bo'lish lozimligi va ularning tavsifi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tizimiga qarashli korxonalar faoliyatiga joriy qilingan. Natijada xarajatlarni guruhlariga bo'lib hisobini yuritish orqali xarajatlar hisobi va auditini amalga oshirish samaradorligi oshishiga, axborotlarning aniqligi ta'minlanishiga olib kelgan.


Dissertatsiyaning «**To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xarajatlar va daromadlar boshqaruv tahlilining axborot-uslubiy ta'minotini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida xarajatlarning dastlabki, yig'ma hisobi va hisobotini takomillashtirish, xarajatlarning analitik va sintetik hisobini AKTda qayta ishlash masalalari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy natijalar tahlilini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xarajatlarni aks ettiruvchi hujjatlar-daftarlardan, jurnallar yoki qaydnomalardan va dastlabki hujjatlar majmuasidan iborat bo'ladi. Shuning uchun bu hujjatlarning shakli va mazmuni buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari talablariga to'lik javob berishi kerak. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida asosiy xom-ashyo yigirilgan ip, to'qima mato va yarimfabrikatlardan iborat bo'ladi. Ular mol yuboruvchilardan qabul qilingan turkum-turkum qilib yigirilgan ip, g'altak ip, to'qima mato va bo'zlarni oladilar. Yigirilgan iplar kalava tsexidan to'quv tsexiga kelib tushadi va ipning ma'lum turkumidan foydalanish hisobi shu yerda amalga oshiriladi. Ip xarajatlarini to'g'ri hisoblash va me'yorlardan chetga chiqishlarni o'z vaqtida hujjatlashtirish muhim ahamiyatga ega, amalda qo'llanayotgan dastlabki hujjatlar esa bu ma'lumotlarni to'liq o'zida aks ettirmaydi.

Shu boisdan ilmiy ishda to'qimachilik va tikuv-trikotaj ishlab chiqarish xarajatlarini joriy va tezkor hisobi va monitoringini ta'minlash maqsadida



kalkulyatsiya qilinuvchi ob'ektlar uchun qo'yidagi takomillashtirilgan dastlabki va yig'ma hujjatlar to'plami tavsiya etilgan (2-rasm).



**2-rasm. To'qimachilik va tikuv-trikotaj ishlab chiqarish xarajatlarini joriy va tezkor hisobi bo'yicha tavsiya etilayotgan hisob registrlari<sup>17</sup>.**


To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonasi hisobotlar boshqaruv xodimlariga sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari va ularning natijalari to'g'risida tezkor axborot berish uchun xizmat kiladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi hisobotlar har bir iqtisodiy elementlar va ishlab chiqarishning javobgarlik markazlari bo'yicha ko'rsatkichlar haqidagi axborotlarni umumlashtiradi, javobgarlik markazlari bo'yicha olingan sof daromad (foyda) yoki boshqa ko'rinishda olingan daromadlar shu hisobot ko'rsatkichlarini asosiy o'lchov mezonini bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarining buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda mazkur tadqiqotda nazarda tutilgan xarajatlarning boshqaruv hisobida «1UZ» dasturini qo'llash maqsadida «Tannarx» nomli bo'lim va unga mos subkontolar hamda «Me'yoriy-huquqiy hujjatlar kontenti»ni kiritish hisob yuritish samaradorligini oshiradi hamda amaldagi buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

Buxgalteriya hisobini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yuritish buxgalteriya hisobi qonunchiligida qo'yilgan talablar va mezonlar bilan baholanadi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 1- va 5-moddalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda moliyaviy hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari asosida buxgalteriya hisobi standartlari bilan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Tadqiqotning oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan va dasturlaridan foydalanish hisob yuritishda muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat (3-rasm):

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.



### 3-rasm. Raqamli texnologiyalar vositalari va dasturlari yordamida hisob yuritishni tashkil qilish bosqichlari<sup>18</sup>.

Demak, ma'lumotlarni axborot texnologiyalarida qayta ishlanishi korxonada hisob siyosatida aks ettirilishi kerak va bu hozirda «1UZ» dasturiy ta'minotlarini amaliyotda qo'llanilib kelinayotgani ishlab chiqilishidan to hozirgi kunga qadar olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilib takomillashtirib borilayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, har bir xo'jalik yurituvchi shaxs o'z faoliyati xususiyatidan, salohiyatidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobini yuritish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqishi yoki faqatgina o'zi foydalanadigan dasturiy ta'minot sotib olishi mumkin.

Barcha avtomatlashtirilgan tizimlarda buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi kiritilgan. Ushbu schyotlar rejasi 21-BHMSga mos keladi. Schyotlar rejasi barcha tashkilotlar uchun umumiy hisoblanadi, axborotlar bazasida ularning hisobi yuritiladi va tashkilotning hisob siyosatining bir qismi hisoblanadi. Schyotlar rejasiga «1UZ» dasturining menyusida «Korxonada», undan «Schyotlar rejasi», so'ngra «Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi» bo'limiga o'tish mumkin.

Tizimda oldindan bo'lgan schyotlarni foydalanuvchi tomonidan o'chirib tashlashi mumkin emas (oldindan bo'lgan schyotlar belgi bilan belgilangan), biroq yangi schyotlar va subschyotlar kiritishi mumkin. Yangi kiritilgan schyotlar bo'yicha quyidagi xususiyatlarini belgilashi shart:

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

aktiv, passiv schyotlarning alomatlarini;  
balansdan tashqari schyotlarning alomatlarini;  
analitik hisobning sozlanishi;  
miqdoriy hisobning sozlanishi;  
valyuta hisobining sozlanishi.

Analitik hisobni sozlash – bu subkonto turlari bo‘lib, schyotning xususiyati sifatida beriladi. Har bir schyot bo‘yicha analitik hisob bir vaqtda uchtagacha subkontoda olib borilishi mumkin

Buxgalteriya hisobining o‘tkazmalarida schyotlardan foydalanishi cheklovlar o‘rnatilgan bo‘lishi mumkin. Buxgalteriya o‘tkazmalarida foydalanish mumkin bo‘lmagan schyotlar, schyotlar rejasida sariq rangda ajratib ko‘rsatilgan. Buxgalteriya hisobi schyotning tuzilishi bilan tanishish maqsadida Schyotning tuzilishi tugmachasini bosib ko‘rish mumkin. Tanlab olingan schyot bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni olish uchun Hisobotlar tugmachasi bosiladi va standart buxgalteriya hisobotining biri, masalan, Schyot bo‘yicha aylanma-qoldiq qaydnomasi shakllantiriladi.

Schyotning subkonto ro‘yxatiga o‘tish uchun, subkonto tugmachasi bosiladi. Chop etish tugmachasi bilan buxgalteriya hisobining schyotlar rejasini ekranga chiqarish va qog‘ozda chop etish mumkin.

Dasturda subkonto deganda analitik hisobning ob‘ekti tushuniladi. Subkonto turlari deganda esa analitik hisobning bir tipdagi ko‘pgina ob‘ektlari tushuniladi va ulardan biri ob‘ekt qilib tanlanadi. Subkonto turi sifatida ma’lumotlar bazasi, hujjat turlari va boshqa ob‘ektlar bo‘lishi mumkin. Hisob uchun umumiy subkonto turlaridan foydalaniladi va ular menyuning «Korxonalar» – «Schyotlar rejasini» – subkonto turlarida joylashgan.

Subkontoning har bir turi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar belgisi o‘rnatilishi mumkin:

faqat aylanmalar hisobi – subkonto qoldig‘i bo‘yicha hisob yuritilmayotgan paytda maqsadga muvofiq hisoblanadi;

hisob so‘mda olib borilishi – ko‘pgina hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi;

miqdoriy hisob – TMZ schyotlari uchun maqsadga muvofiq;

valyuta hisobi – balansning valyuta moddalari bo‘yicha olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarining buxgalteriya hisobi va auditi faoliyatining asosiy maqsadi ijobiy moliyaviy natijaga erishish, ya’ni maksimal darajada foyda olishdir.

Sifatli trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida yuqori darajada avtomatlashtirilgan yangi texnologiya asosida ishlaydigan qo‘shma korxonalar qurilib yengil sanoat korxonalariga safiga kiritilmoqda.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini tizimida asosiy xarajatlarning ko‘pchilik qismini moddiy xarajatlarni tashkil qiladi. Tarmoqda xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida bozor talablaridan kelib chiqqan holda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan maqsadli parametrlarining prognozi ishlab chiqildi.(6-jadval)

**To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmi bo'yicha maqsadli parametrlarining prognozi<sup>19</sup>**

T. r.	Maxsulot nomi	O'lcho v birligi	O'tgan davrlar			Kutilayo tgan holat	Prognoz			2025 yilga o'sish
			2019	2020	2021		2022	2023	2024	
I.	To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	mln doll.	4325,5	5861,6	8058,2	11319,3	12514,1	13764,6	15028,5	3,5 marta
1.	Ip-kalava, shundan bo'yalgan va aralash	ming tn	623,7	770,3	921,4	930,2	974,3	990,3	1 032,5	2,7 marta
			182,5	223,6	248,5	276,0	413,0	463,8	470,5	2,6 marta
2.	Tayyor ip-gazlama, jami: ... texnik, maxsus ip-gazlamalar)	mln kv. m.	471,0	963,4	1 061,9	1 237,9	1 253,4	1 364,2	1 425,9	3 marta
			130,3	223,6	248,5	276	413,6	463,8	470,5	3,6 marta
3.	Tayyor trikotaj mato	ming tn	174,8	227,5	350,0	406,8	520,0	540,0	546	3,1 marta
4.	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	mln dona	790	1070,6	1680	2850	2248,3	3080,0	3205,3	4,1 marta
5.	To'qimachilik galantereyasi	mlrd so'm	72	106,5	156,8	191,6	221,3	278,1	360,5	5 marta
6.	Paypoq mahsulotlari	mln juft	260,8	312,4	325,9	409,3	415,1	421,8	427	1,6 marta
II.	To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti hajmi	mln doll.	2156,4	2703,3	3130	3908,3	4760,00	5731,9	7075,00	3,3 marta

Tadqiqot ishida hozirgi paytda amaliyotda keng qo'llanilayotgan «E-views», «Stata» va «Excel» dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib, ekonometrik modellashirish yordamida uzoq muddatli prognozi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.


**«INDORAMA KOKAND TEXTILE» aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasi  
sotishdan olingan daromadlari va xarajatlari tahlili, mln.so'm<sup>20</sup>**

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021
<b>1.Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari</b>					
Sotishdan olingan tushum	740 430	871 094	1 024 816	1 205 666	1 418 431
Sotilgan maxsulotning tannarxi	464 378	530 647	599 082	781 296	920 568
Davr xarajatlari, jami	170 911	201 072	251 515	212 173	238 034
Shu jumladan:					
Ish haqi	61 053	71 827	72 984	79 963	99 089
Ijara haqi	65 151	76 648	103 925	77 872	60 157
Asosiy vositalarning eskirishi	24 395	28 700	45 498	34 376	18 917
Kredit foizlari	20 312	23 897	29 109	19 962	59 870
Sof foyda	105 141	139 375	174 219	212 197	259 829
Sof foyda marjasi %	14,2%	16%	17%	17,6%	18,3%

<sup>19</sup> «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi moliyaviy va statistik hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

<sup>20</sup> «INDORAMA KOKAND TEXTILE» AJ xorijiy korxonasi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadvalning ko‘rsatishicha, tadqiqot ob‘ektida sotishdan olingan tushumning yillar kesimida oshishi kuzatilgan. Uning ta‘sirida mos ravishda maxsulot tannarxi ham o‘shib borgan. Davr xarajatlari esa 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 139 foizga o‘sgan, biroq 2019 yilga nisbatan olganimizda, bu xarajatlar 94,6 foizga kamayganligini guvohi bo‘lamiz. Sof foyda marjasi yillar davomida mos ravishda 2017 yilda 14,2%; 2018 yilda 16%; 2019 yilda 17%; 2020 yilda 17,6%; va 2021 yilda 18,3 %ni tashkil etganligini ijobiy holat sifatida baholash lozim.



**4-rasm. «INDORAMA KOKAND TEXTILE» aksiyadorlik jamiyati xorijiy korxonasini sotishdan olingan daromadlari va xarajatlarning 2017-2021 yillar bo‘yicha tahlili va 2022-2026 yilgacha bo‘lgan davrga prognozi, mln.so‘m<sup>21</sup>**

Prognoz davrida sotishdan olingan daromadlar 2026 yilda 2022 yilga nisbatan 116,9 foizga, sof foyda esa 187,4 foizga o‘shishi kutilmoqda. Shu davrda sotilgan mahsulotning tannarxi 112,5 foiz, davr xarajatlari esa 116,9 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Mazkur istiqbolli tahlil natijasida xo‘jalik sub‘ektiga samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish imkoniyati yaratilgan.

**8-jadval**

**«BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy natijalari ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>22</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sof tushum, ming so‘m	44 073 679	82 466 323	76 045 393	74 245 844	98 945 423	135 322 545
Asosiy faoliyat foydasi %	54	40	42	37	18	11
Soliq to‘languncha foyda %	12	5	9	13	13	6
Sof foyda %	7	3	8	11	9	5

<sup>21</sup> «INDORAMA KOKAND TEXTILE» AJ xorijiy korxonasi moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

<sup>22</sup> «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy va statistik ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, tadqiqot ob'ektining sof tushumi 2021 yilda 2016 yilga nisbatan 3 martadan ortiq bo'lgan, ammo asosiy faoliyatning foydasi 43 foizga, soliq to'languncha foyda 6 foizga va sof foyda 2 foizga kamayganligini guvohi bo'lamiz.

Jadval tahlili natijasida 2022–2026 yillarda korxonaning moliyaviy natijalari ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy tendensiyalar kutilmoqda. Xususan, 2026 yilda 2022 yilga nisbatan o'sish 3 marta, asosiy faoliyat foydasi 10 foizga, soliq to'languncha foyda 10 foizga va sof foyda 7 foizga o'sishi prognoz ma'lumotlari asosida tasdiqlandi.(9-jadval)


9-jadval

**«BETLIS TEKSTIL» MChJning 2022-2026 yillardagi moliyaviy natijalarining prognoz ko'rsatkichlari<sup>23</sup>**

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2026
Sof tushum, ming so'm	175 919 309	228 695 101	297 303 631	386 494 721	502 443 137
Asosiy faoliyat foydasi %	40	34	30	34	50
Soliq to'languncha foyda %	16	10	6	10	26
Sof foyda %	12	7	4	7	19

Ilmiy ishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy natijalari dinamikasi va 2022-2026 yillarda kutilayotgan prognoz ko'rsatkichlari diagramma ko'rinishida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi panel ma'lumotlari va prognoz ko'rsatkichlarini kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash natijasida auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga, shuningdek, auditorlik hisoboti hamda xulosasini xalqaro standartlar asosida tayyorlashga imkoniyat yaratiladi.



**5-rasm. «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy natijalari dinamikasi va 2022-2026 yillarda kutilayotgan prognoz ko'rsatkichlari<sup>24</sup>**

<sup>23</sup> «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy va statistik ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

<sup>24</sup> «BETLIS TEKSTIL» MChJning 2016-2021 yillardagi moliyaviy va statistik ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Umuman olganda yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlarning amaliy natijalaridan foydalanish asosida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo‘limning tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda subkonto schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar asoslantirildi. Xarajatlarning boshqaruv hisobida «1UZ» dasturini qo‘llash maqsadida «Tannarx» nomli bo‘lim va unga mos subkontolar hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish» taklifini qo‘llash asnosida hisob yuritish mexanizmida aniqlilik, tushinarlilik jihatini oshiradi hamda amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish imkoniyati yaratildi.

Dissertatsiyaning «**To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida audit metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida ichki auditning xalqaro standartlarini boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish usullari, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining auditini mukammallashtirish, moliyaviy natijalar auditini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda auditorlik xizmat ko‘rsatishdan olingan 206352,4 mln. so‘mning 67,6 foizi auditorlik tekshiruvlaridan va faqat 32,4 foizi boshqa ko‘rsatilgan xizmatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkich Rossiya Federatsiyasida quyidagicha: umumiy daramodning 58,2 foizi auditorlik tekshiruvlaridan va 41,8 foizi esa boshqa ko‘rsatilgan xizmatlar ulushini tashkil etadi.

O‘z navbatida iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish auditorlik faoliyati, auditorlik tekshiruvlarining tashkiliy va metodologiyasiga ham zarur o‘zgarishlarni kiritishni talab etmoqda. Audit amaliyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning tahlili uni tashkil etish an‘anaviy usuldan intellektual usulga o‘tayotganligini ko‘rsatmoqda. Fikrimizcha, audit metodologiyasi ham texnologiyalarga asoslanmog‘i lozim. Auditni raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish o‘z navbatida raqamli audit modelini ishlab chiqishni ijtimoiy-iqtisodiy zaruratga aylantirdi. Audit metodologiyasining istiqboldagi rivojlanishi auditorlik risklarini boshqarishga yo‘naltirilgan konsepsiyaga asoslanishi zarur. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida nafaqat auditning nazariy masalalari, balki, uning uslubiyoti va amaliyotida ham strategik islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

Bu borada xalqaro amaliyotda tan olingan SoftExpert Audit kompyuter dasturiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, u audit jarayonini kompleks ravishda amalga



o'shishga mo'ljallangan. Mazkur dastur yagona integratsiyalashgan platformada auditni rejalashtirish, tayyorlash, audit rejalarini, dasturlari va nazorat varaqalarini ishlab chiqish, auditni o'tkazish, hisobot tuzish va monitoring qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni kompleks boshqaradi.

Auditning mazkur kompyuter dasturi ichki audit, operatsion audit, IT-auditi, mol yetkazib beruvchilar bilan muomalalar auditi, risk va xavf-xatarlarni baholash, audit sifatini nazorat qilish kabi barcha turdagi funksiyalarni bajaradi.

To'liq va moslashuvchan xususiyatga ega bo'lgan SoftExpert Audit dasturining SoftExpert Suite ilovasidan aktivlar, kapital, majburiyatlar va biznes jarayonlarini boshqarish, investitsion loyihalar tahlili, moliyaviy hisobot auditi kabi sohalarda foydalanish samarali hisoblanadi.

SoftExpert Suite maxsus ilovasi ijtimoiy mas'uliyat, boshqaruv, sifat, ekologiya, tibbiyot va moliyaviy xavfsizlik bilan bog'liq xalqaro standartlar talablari asosida ichki va tashqi auditni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda auditorlar aniq, real vaqtda ishonchli axborotga ega bo'lgan funksiyalar, qulay, intuitiv tushunarli portallar orqali audit sifatini monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Buning natijasida quyidagilarga erishiladi:

auditni rejalashtirish, amalga oshirish, hisobot berish va kuzatishgacha bo'lgan barcha audit jarayonlarini avtomatlashtirishga;

auditorlarga alohida auditorlik topshirig'idan to'liq yillik audit dasturigacha rejalashtirish imkoni yaratiladi;

audit natijalarini rasmiylashtirishni maqbullashtiradi, qidiruv jarayonini avtomatlashtiradi va zarur bo'lganda tuzatuvchi harakatlar rejalarini amalga oshiradi;

vazifalarni avtomatik belgilash va amalga oshirish, bildirishnomalar va elektron pochta ogohlantirishlari bilan audit davri va vaqtini optimallashtiradi;

qidiruv tizimidan foydalanish orqali audit bilan bog'liq hisob hujjatlariga tegishli barcha axborotlarni yagona makonda boshqarish auditning izchilligi va yaxlitligini ta'minlaydi;

auditning ish hajmi, ko'lami va vaqtini to'g'ri belgilanishini ta'minlash maqsadida auditorning profillarini muvofiqlashtiradi;

tarmoqlar, loyihalar, bo'limlar, aktivlar, jarayonlar, mahsulotlar va boshqalar bilan integratsiyalashuv orqali audit jarayoni ko'lamini belgilaydi;

ilova vositasida ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonini avtomatlashtirish uchun axborot oqimlarini osonlik bilan sozlash imkoniyati yaratiladi;

auditorga oflayn rejimda foydalanish uchun audit tekshiruviga taalluqli axborotlarni yuklab olish imkonini beradi;

Web sahifalar yoki pdf formatlar orqali hisobot berish va axborot almashishni avtomatlashtiradi.

Iqtisodiyotimizda qo'llanilayotgan «Audit planning» dasturining maxsus ilovasi «Audit Sampling» dasturi auditorlik tekshiruvining ma'lum bir ob'ektiga ixtisoslashgan bo'lib, u auditning barcha jarayonlarini to'liq qamrab olmaydi. Bu ilova bank tizimida kredit portfelini auditdan o'tkazishda moliyaviy holat va barqarorlikni aniqlashda ijobiy samara bermoqda. Shuni inobatga olib, tadqiqotda yengil sanoat korxonalarini faoliyatining auditi jarayonida moliyaviy barqarorlikni aniqlash maqsadida ushbu dastur va uning ilovasidan foydalanish zarurligi asoslangan.

Auditni rejalashtirish va amalga oshirishdagi muhimlik tamoyilidan samarali foydalanish auditga ajratilgan katta hajmdagi tekshiruvlarni amalga oshirish, umumlashtirish, ichki auditorning hisoboti, dalolatnomasi va xulosasini tayyorlashga sharoit yaratadi.

Muhimlik chegarasi aniqlanmagan va tuzatilmagan buzib ko'rsatishlarning umumiy yig'indisi moliyaviy hisobot uchun o'rnatilgan muhimlik darajasidan oshib ketishi ehtimolini maqbul bo'lgan past darajagacha kamaytirish maqsadida auditor tomonidan optimal qilib belgilangan summa yoki foizlarni anglatadi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini uchun muhimlik darajasini belgilashda quyidagi omillarni hisobga olish tavsiya qilingan:

- xatolikning mutloq miqdori;
- xatolikning nisbiy miqdori (xatoni moliyaviy hisobotning shakllari bo'yicha umumiy summasiga nisbatan tahlil qilinishi);
- xatolikning yig'ma qiymati;
- hisobot moddalarining mazmuni (xatolikka moyil moddalar);
- aniq shartlar – hisobot kimga mo'ljallangan: aksiyadorlar (foyda va zararlar), banklar (pul oqimlari), investorlar (foyda va zararlar, pul oqimlari);
- noaniqlik (faoliyatning davomiyligi va uzluksizligi, bankrotlik belgilarining mavjudligi).

Ichki audit o'tkazishda muhimlik darajasini belgilashda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi:

- tovar aylanishidan – 0,5-1,0 %;
- yalpi foydadan- 1,0 – 2,0 %;
- soliqqa tortilgunga kadar foydadan- 5,0%
- Balans xisoboti moddalari bo'yicha:
- xususiy kapital so'mmasidan – 5,0 %;
- aktivlar qiymatidan- 1,0 – 2,0 %.

Aniqlangan xato summasi keltirilgan ko'rsatkichlardan yuqori bo'lsa, bunday xato muhim xato deb hisoblanishi mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, tadqiqotda ichki audit jarayonida muhimlik darajasini baholashda taqsimlanmagan foyda summasiga mutanosib ravishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya qilingan:

- xato summasi 5% gacha bo'lsa – muhim emas;

xato summasi 5% dan 10% gacha bo'lsa – muhim bo'lishi mumkin;  
xato summasi 10% dan yuqori bo'lsa – doimo muhim hisoblanadi.

Ilmiy ishda muhimlik darajasini belgilash bosqichlarini quyidagi bo'limlarga ajratilgan:

*Testdan o'tkazish va rejalashtirish bosqichi:*

1-bosqich. Muhimlik to'g'risida dastlabki mulohaza.

2-bosqich. Segmentlarga muhimlik to'g'risidagi dastlabki mulohazani qo'llash.

*Natijalarni baholash bosqichi:*

3-bosqich. Segmentlardagi haqiqiy xato summasini aniqlash.

4-bosqich. Xaqiqiy xato summalarining umumiy miqdorini aniqlash.

5-bosqich. Umumiy haqiqiy xato summasini dastlabki mulohaza summasi bilan solishtirish.

**10-jadval**

**Auditorlik tekshiruvlarida muhimlik darajasini baholashning taklif etilayotgan variantlari<sup>25</sup>**

T.r.	Ko'rsatkichlar	O'sish, mln. so'm	%	Kamayish, mln. so'm	%
<b>1-variant:</b>					
	<b>Aktivlar:</b>				
1.	Pul mablag'lari	1 000,0	2	1 000,0	2
2.	Debitorlik qarzlari	15 000,0	30	5 000,0	10
3.	Tovar-moddiy zaxiralar	34 000,0	68	44 000,0	88
	Jami muhimlik	50 000,0	100	50 000,0	100
<b>2-variant:</b>					
1.	Pul mablag'lari	1 000,0	2	1 000,0	2
2.	Debitorlik qarzlari	5 000,0	10	1 000,0	2
3.	Tovar-moddiy zaxiralar	24 000,0	48	24 000,0	48
	Jami aktivlar bo'yicha	30 000,0	60	26 000,0	52
	<b>Passivlar:</b>				
4.	Kapital	2 000,0	4	3 000,0	6
5.	Qisqa muddatli majburiyatlar	13 000,0	26	17 000,0	34
6.	Uzoq muddatli majburiyatlar	5 000,0	10	4 000,0	8
	Jami passivlar	20 000,0	40	24 000,0	48
	Jami muhimlik darajasi	50 000,0	100	50 000,0	100

Yuqoridagi jadvalning ko'rsatishicha, auditorlik tekshiruvlari jarayonida muhimlikni baholash birinchi variantda balansning joriy aktivlari qismiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi variantda esa balans passivining kapital va majburiyatlar bo'limi moddalari salmog'i bilan ham aniqlash taklif etilgan (10-jadval).

Tadqiqotda ichki audit jarayonida auditor dastlab belgilagan muhimlik darajasi summasidan farq qiluvchi axborotlarni aniqlasa va ularni tan olishga majbur

<sup>25</sup> Muallif ishlanmasi.

bo'lsa, zarur hollarda xo'jalik muomalalari, schyotlar qoldiqlari, hisobot yoki ochib beriladigan axborotning ayrim turlari uchun muhimlik darajasini qayta ko'rib chiqishi zarurligi asoslangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda auditorlik faoliyatining muhim turi sifatida ichki auditni tashkiliy, nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish va moliyaviy nazorat tizimida uning rolini oshirish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Dissertatsiya tadqiqoti jarayoni quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik maxsus ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijalaridan foydalanish asosida amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida «Xarajatlar» nomli bo'limning tarkibiga kiritiladigan kalkulyatsion hamda subkonto schyotlarni BHXSga adaptatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

2. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarining buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda mazkur tadqiqotda nazarda tutilgan «Xarajatlarning boshqaruv hisobida «1UZ» dasturini qo'llash maqsadida «Tannarx» nomli bo'lim va unga mos subkontolar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish» taklifini qo'llash asosida hisob yuritish mexanizmida aniqlilik, tushinarlilik jihatini oshirgan hamda amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish imkoniyati yaratilgan.

3. Xarajatlarning boshqaruv hisobini yuritish, tannarx hisoblash, moliyaviy natijalar auditini tarmoq xususiyatini inobatga olgan holda xarajatlarni hisob yuritish amaliyotida boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobiga oid xarajatlarga bo'lish zarurligi va ularning tavsifi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi tizimiga qarashli korxonalar faoliyatiga joriy qilinishi natijasida xarajatlarni guruhlarga ajratib hisobini yuritish orqali xarajatlar hisobi va auditini amalga oshirish samaradorligi oshishiga, axborotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlanishiga olib kelgan.

4. Audit jarayonida muhimlikni aniqlash va riskni baholashda tahliliy amallardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, natijada auditni xalqaro standartlar asosida tashkil qilish imkoniyati yuzaga kelgan.

5. Yengil sanoat tizimida AKTda qayta ishlashga mo'ljallangan raqamlashtirilgan hisob registrlarining takomillashtirilgan shakllari hamda «Tarmoq korxonalarida xarajatlar – mahsulot hajmi – foyda» Zanjiri asosida iste'mol qiymatini shakllantirish mexanizmi ishlab chiqilgan va tarmoq korxonalarini faoliyatiga tatbiq qilingan.

6. Yengil sanoat korxonalarida «Audit-sampling», «SoftExpert Audit» dasturlari asosida mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalar auditini o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar hamda to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonasining mahsulot tannarxi va moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning 2025 yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

7. Tadqiqot ishida «Joriy aktivlar», «Qisqa muddatli aktivlar», «Zaxiralarni qaytarish huquqi bo'yicha aktiv», «Doimiy va vaqtinchalik farqlar», «Tugallanmagan ishlab chiqarish» kabi iqtisodiy atamalarga mualliflik ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar talablariga ko'ra «Tannarx» sintetik schyotining tarkibida «Vaqtning muayyan nuqtasida tan olinadigan tannarx», «Davr mobaynida tan olinadigan tannarx», «Tannarxga tuzatish kiritish» nomli subschyotlarni ochish orqali tannarxni yangicha guruhlashtirilishi yuzasidan tavsiyalar berilgan va ilmiy asoslantirilib, yengil sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditori metodologiyasini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik maxsus ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijalari sifatida ko'rilgan.

8. To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida moliyaviy hisob tizimi bilan xarajatlarning boshqaruv hisobini integratsiyalashgan holda qo'llash keng tarqalgan. Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi parallel ravishda moliyaviy hisob va boshqaruv hisobini yuritish imkonini beradi. Shunday tizimni korxonada joriy etish boshqaruv hisobi bilan ishlab chiqarish hisobini aniq va ishonchli tarzda yuritish, boshqaruv ehtiyojlari uchun zarur axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash imkonini beradi.

9. Yengil sanoat korxonalarida xarajatlar boshqaruv hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash metodologiyasini takomillashtirish borasida target kosting, kayzen kosting va ular asosida goal-kosting (goal costing) usulini amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**МАХМУДОВ АЗАМАТ НОРМУРАДОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО  
УЧЕТА И ВНУТРЕННЕГО АУДИТА ЗАТРАТ И ДОХОДОВ**

**08.00.08 – Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук (DSc)**

**Ташкент – 2023**

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована под номером B2022.3.DSc/Iqt2468 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно - образовательном портале "ZiyoNET" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный консультант:	Хасанов Баходир Акрамович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ахмеджанов Каримжон Бакиджанович доктор экономических наук, профессор Исманов Иброхим Набиевич доктор экономических наук, профессор Маматкулов Муроджон Шукурович доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	Банковско-финансовая Академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 14.00 в час. 24 02 2023 г. на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером 1258). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Автореферат диссертации разослан «10» 02 2023 года.

(реестр протокола рассылки № 16 от «10» 02 2023 года)



[Signature]  
М.П. Эшов  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

[Signature] - У.В. Гафуров  
Учёный секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней,  
д.э.н., профессор

[Signature]



## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора экономических наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Развитые страны мира добиваются укрепления своей конкурентоспособности на мировом рынке путем обеспечения стабильности национальной экономики на основе инновационного развития и диверсификации производства, а также производства экспортной продукции. «Объем мирового текстильного рынка в 2021 году оценивается в 993,6 миллиарда долларов США, при этом ожидается, что годовой темп роста составит 4,0 процента в период с 2022 по 2030 годы»<sup>1</sup>. В настоящее время, в мировом масштабе в качестве приоритетной задачей обозначена организация бухгалтерского учета и аудита в соответствии с международными стандартами в процессе учета производственных затрат, определения себестоимости продукции и привлечения иностранных инвестиций на предприятиях легкой промышленности.

В знак признания того факта, что устойчивое развитие национальной экономики в странах мира во многом зависит от уровня достоверности и точности финансового состояния и отчетности хозяйствующих субъектов, проводится большое количество научно-исследовательских работ, направленных на совершенствование управленческого учета и внутреннего аудита расходов и доходов. Развитие бухгалтерского учета и создание информационной базы для управления хозяйственной деятельностью текстильных и швейно-трикотажных предприятий и их подразделений, разработка методологических основ управления затратами в общей структуре системы управления легкой промышленностью, развитие бухгалтерского учета и аудита на швейно-трикотажных предприятиях является одним из приоритетных направлений научных исследований в этой области.

В соответствии со стратегией развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы уделяется внимание повышению эффективности иностранных инвестиций, направляемых в предприятия легкой промышленности, являющиеся одной из важнейших отраслей экономики. Поставлена задача «Увеличит объем производства продукции текстильной промышленности в 2 раза и кожевенно-обувной продукции в 3 раза на основе использования современной техники и технологий»<sup>2</sup>. Исходя из поставленных задач, выбрана стратегия развития предприятий легкой промышленности нашей республики по снижению издержек производства, увеличению прибыли и достижению финансовой стабильности. С этой целью, особое внимание уделяется организации и повышению эффективности системы бухгалтерского учета и аудита на основе международных стандартов в целях модернизации деятельности предприятий легкой промышленности и диверсификации ассортимента продукции. Обеспечение выполнения поставленных задач требует наращивания экспортного потенциала легкой промышленности страны, в частности текстильных и швейно-трикотажных предприятий.

---

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», представленный на <https://lex.uz/docs/5841063>

Требуется создание научных основ крупномасштабного производства конкурентоспособной продукции за счет развития производственной инфраструктуры предприятий легкой промышленности и внедрения инновационных технологий. В связи с этим, на основе зарубежного опыта, совершенствование организационно-экономических механизмов повышения эффективности управления диверсификацией производства на предприятиях легкой промышленности в нашей стране является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня.

Данное диссертационное исследование послужит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года № УП-53 «О мерах по стимулированию глубокой переработки, производства и экспорта готовой продукции с высокой добавленной стоимостью текстильными и швейно-трикотажными предприятиями», в Указе Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2020 года № УП-5989 «О неотложных мерах по поддержке текстильной и швейно-трикотажной промышленности», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 16 сентября 2019 года № ПП-4453 «О мерах по дальнейшему развитию легкой промышленности и стимулированию производства готовой продукции», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности», в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 апреля 2022 года №171 «Об утверждении положения о порядке признания международных стандартов аудита для применения на территории Республики Узбекистан», а также в других нормативно-правовых документах, касательно данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и техники И. “Духовно-этическое и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.**<sup>3</sup> Научно-практические исследования по совершенствованию методологии организации бухгалтерского учета и аудита на предприятиях легкой промышленности проводятся международными организациями, научными

---

<sup>3</sup> The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>; Bureau of Economic Analysis (BEA) U.S. International Economic Accounts: Concepts and Methods. International Transactions Accounts, International Investment Position Accounts, and the Activities of Multinational Enterprises. <https://www.bea.gov/system/files/2021-07/iea-concepts-methods-2014.pdf>; The International Accounting Standards Committee, <https://www.iasplus.com/en/news/2012/november/the-bruce-column-2014-hoogervorst-makes-his-case-for-leasing-reform>; The IFRS Foundation, <https://www.ifrs.org/news-and-events/news/2021/02/iasb-amends-ifrs-standards-accounting-policy-disclosures-accounting-policies-accounting-estimates>; International union of railways, <https://uic.org/support-activities/finance/>; Giovanna Michelon, Antonella Cugini, Silvia Pilonato. Innovating accounting practices in rail transport companies. Journal of Applied Accounting Research. September 2013 DOI: 10.1108/09675421311291892; [Yuliya Vladimirovna Predeus, N. V. Predeus, P. L. Altukhov](#), Development of Managerial Accounting in the Railway Holding. April 2020. DOI: [10.1007/978-981-15-2244-4\\_58](https://doi.org/10.1007/978-981-15-2244-4_58);

центрами, высшими учебными заведениями, в том числе: The World Bank, Bureau of Economic Analysis (BEA), The International Accounting Standards Committee (IASC), International Accounting Standards Board (IASB), International Sustainability Standards Board (ISSB), The IFRS Foundation, International union of railways (UIC), Институт дипломированных бухгалтеров (АИСПА), University of Bristol (Великобритания), University of Padova (Италия), Московский государственный университет имени М.В.Ломоносова, Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова (Российская Федерация), Ташкентский государственный экономический университет, Ташкентский государственный институт текстильной и легкой промышленности, Ташкентский финансовый институт.

В заключение научных исследований по совершенствованию методологии организации бухгалтерского учета и аудита на предприятиях легкой промышленности на международном уровне получены следующие научные результаты, в частности: освещены аспекты представления бухгалтерских инноваций в системе измерения затрат предприятий легкой промышленности; представлено совершенствование открытости бухгалтерской политики и дифференциация изменения в бухгалтерском учете от изменений в учетной политике, с целью предоставления более полезной информации инвесторам и другим основным пользователям финансовой отчетности (The IFRS Foundation); определены бизнес-процессы, обслуживающие систему легкой промышленности, а также с целью дальнейшей оптимизации операционных расходов они могут быть выполнены путем передачи на аутсорсинг.

На сегодняшний день в мире проводятся исследования по следующим приоритетным направлениям по совершенствованию теоретико-методической, методической и экономически-правовой базы организации бухгалтерского учета и аудита на предприятиях легкой промышленности в высших учебных заведениях, научных центрах и престижных международных институтах, которые заключаются в следующих: планирование бюджетов и управление расходами на основе сохранения надежной бухгалтерской инфраструктуры, совершенствование методов определения себестоимости продукции, организация аудита финансовых результатов, изучение устойчивости его структурных составляющих и влияния расчетов на стабильность посредством внедрения международных стандартов аудита и проведения мониторинга.

**Степень изученности проблемы.** В исследование теоретических и практических аспектов методологии организации бухгалтерского учета и аудита на предприятиях легкой промышленности внесли достойный вклад многие зарубежные ученые, в том числе С.Маккартней, А.Арнолд, Б.Нидлз,

Х.Андерсон, Ч.Хорнгрен, Р.Энтони<sup>4</sup>, также, ученые-экономисты из стран СНГ, такие как А.Аксененко, Н.Кондраков, И.Ламикин, С.Николаева, В.Палий, В.Суйц, А.Шеремет<sup>5</sup>.

